



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRINING BUYRUG‘I**

2024 - yil “15” mart \_\_\_\_\_ 81 \_\_\_\_\_-son

Toshkent viloyati

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida o‘qitish va malaka oshirishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish, xodimlarning korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatini hamda huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo‘yicha tasdiqlangan yillik rejasi asosida vazirlik tizimidagi xodimlarni shu jumladan ishga yangi qabul qilingan va rotatsiya qilingan xodimlarning har chorak yakuniga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida o‘qitilishi va malakasi oshirilishi lozimligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Komplyens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (Xalilov), vazirlik hududiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari rahbarlari:

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo‘yicha tasdiqlangan yillik rejasi asosida xodimlar, shu jumladan ishga yangi kirgan xodimlarni har chorak yakuniga ko‘ra, ya‘ni mart, iyun, sentabr va dekabr oylarining uchinchi dekadasida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida o‘qitsin va malakasini oshirsin;

Xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tegishli ma‘lumotlarni har chorak yakuniga ko‘ra vazirlik rahbariyatiga taqdim etib borsin.

3. Vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari “E-anticor” platformasiga bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mustaqil ravishda kiritilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir kotibiyati boshlig‘i Sh.Ergashev zimmasiga yuklansin.

Vazir



I. Abduraxmonov